

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.O.Ikromova Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissasi nutq shakllarini tarjima qilishning psixolingvistik xususiyatlari	128
Ш.М.Артикова Сопоставление стратегий вежливости и культурных установок в англосаксонском и узбекском семейном дискурсе.....	136
G.A.Komilova Siyosiy nutqlarda ishontirish strategiyalarining lingvistik tahlili.....	145
M.T.Ikromov Botanik terminlarning etnomadaniy tadqiqi.....	149
U.H.Usmonova O'zbek, rus va ingliz tillaridagi fe'l frazeologik birliklarning struktur-semanatik va lingvokulturologik tadqiqi	154
U.M.Askarova Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	158
Sh.Kh.Sayidov, N.M.Nabijonova The intersection of paralinguistics and sociolinguistics.....	163
M.Y.Mamajonov, F.A.Bekmuxamedova Inglizcha va o'zbekcha maqollar asosida lingvokognitiv tahlil	166
Sh.Sh.Dadabayeva Aksiologikadagi asosiy jarayonlar	171
Sh.Sh.Dadabayeva Axloqiy-fuqaroviy qadriyatlarni ifodalovchi aksiologik leksikalar tadqiqi	175
L.T.Galimullina, K.M.Akramova The semantics of verbal phraseological units and their evaluative emotive peculiarities in the English and Russian languages	179
X.A.Baymanov, M.M.Soatova Hajviy matnlarni tarjima qilishning kognitiv-pragmatik xususiyatlari	184
Sh.R.Karimjonova Kognitiv tilshunoslik: asosiy yondashuvlar va tushunchalar	188
L.T.Galimullina, N.F.Salakhutdinova Some issues in the antonymy of phraseological units in the english language	195
Р.Сулейманова Историческая лексика тюркских языков: морфосемантическое и этимологическое исследование корневых слов	199
A.Sh.Mukhamadiev Aggression as a form of speech influence in the literature of the uzbek and english languages ..	203
S.Z.Hemidli Metaphorization in the mythological lexicon of english and azerbaijani languages (comparative-historical typological linguistics).....	209
X.U.Qodirova Nutqiy etiket va milliy-madaniy identikasiya: ingliz tili konteksti misolida	215
Д.Б.Хамидова Влияние языка на формирование специализированной терминологии	218
G.A.Zaynutdinova O'zbek tilshunosligida lingvopoetika umumfilologik yo'nalish sifatida	222
R.Kahramanova Lexical and grammatical features of kinship terms in azerbaijani dialects	227
A.M.Aimuxammetova Ingliz va qoraqalpoq tilshunosligida numerativ birliklarning o'rganilish tarixi	231
N.Q.Adamboyeva Non-traditional language learning methods and brain activity	234
D.S.Usmonova, N.R.Rajabova Ingliz tili o'rganishda gamifikatsiya: motivatsiya va faollikni oshirish	237
M.T.Raxmonqulova Tilshunoslikda “Konsept” va “Konseptosfera” tushunchalari talqini	241



UO'K: 81'25:81'27+81'255.4

HAJVIY MATNLARNI TARJIMA QILISHNING KOGNITIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА
ЮМОРИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

COGNITIVE-PRAGMATIC FEATURES OF TRANSLATING HUMOROUS TEXTS

Baymanov Xabibulla Abdullayevich¹ ¹Toshkent amaliy fanlar universiteti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph), dotsentSoatova Mohinur Majid qizi² ²Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, (PhD) tayanch doktorant

Annotatsiya

Har qanday fanda qo'llaniladigan tarjima nafaqat o'quvchiga nazariy tushuncha berishi, balki tadqiqotchi qiziqishlariga oid hodisalarni bashorat qila olishi lozim. Fikrimizcha, aynan shunday amaliy yo'nalishga ega bo'lgan xususiyat, ya'ni ma'lum sharoitlarda yumoristik matnni bashorat qila oladigan xususiyati, asl matndan tarjima tiliga yumorni o'girish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirishga yordam beradi. Mamlakatimizda va xorijda olib borilayotgan kognitiv tadqiqotlar borliq hodisalarining keng qamrovini o'z ichiga oladi. Bu hodisalarni eng aniq va batafsil tavsiflash faqat kognitiv tilshunoslik yutuqlari tufayligina mumkin. Ilgari til bizni o'rab turgan dunyoning ko'zgusi hisoblanganiga qaramay, bugungi kunda til insonning ma'naviy dunyosiga, uning aql-zakovatiga, fikrlash jarayoni sirlariga kirib borish vositasi sifatida qaralmoqda va tilshunoslikdagi bu burilish katta e'tiborga loyiqdir. Tarjimonning muallif fikrini yetkazish jarayonini tahlil qilishda uning matnni tushunishi, bilimlarni saqlashi va ulardan foydalanishi, shuningdek, fikrni boshqalarga tushunarli tilda ifodalash qobiliyati o'rganiladi. Masalan, tarjimonning kasbiy mahorati faqat tillarni bilish bilan cheklanmaydi, balki tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va hal qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, tarjimonlarning amaliy faoliyati bilan bog'liq jarayonlar, xuddi pedagoglar kabi, ko'pincha faraz va taxminlarga asoslanadi.

Аннотация

Перевод, применяемый в любой науке, должен не только давать читателю теоретическое понимание, но и предсказывать явления, представляющие интерес для исследователя. По нашему мнению, именно такая практическая направленность, а именно способность предсказывать юмористический текст в определенных условиях, значительно способствует совершенствованию процесса перевода юмора с исходного языка на язык перевода. Когнитивные исследования, проводимые в нашей стране и за рубежом, охватывают широкий спектр явлений действительности. Наиболее точное и детальное описание этих явлений возможно только благодаря достижениям когнитивной лингвистики. Несмотря на то, что раньше язык считался зеркалом окружающего нас мира, сегодня он рассматривается как средство проникновения в духовный мир человека, его интеллект, тайны мыслительного процесса, и этот поворот в лингвистике заслуживает пристального внимания. При анализе процесса передачи мысли автора переводчиком изучается его понимание текста, сохранение и использование знаний, а также способность выражать мысль на понятном для других языке. Например, профессиональное мастерство переводчика не ограничивается знанием языков, но также включает в себя способность выявлять и решать проблемы, возникающие в процессе перевода. Авторы отмечают, что процессы, связанные с практической деятельностью переводчиков, как и педагогов, часто основываются на гипотезах и предположениях.

Abstract

Translation used in any field of science should not only provide theoretical understanding to the reader but also be able to predict phenomena related to the researcher's interests. In our opinion, a feature with such a practical orientation, namely the ability to predict humorous text under certain conditions, will significantly improve the process of translating humor from the source text into the target language. Cognitive research conducted in our country and abroad encompasses a wide range of existential phenomena. The most accurate and detailed description of these phenomena is possible only due to the achievements of cognitive linguistics. Although language was previously considered a mirror of the world around us, today it is viewed as a means of penetrating into a person's spiritual world, their intellect, and the secrets of the thinking process. This shift in linguistics deserves great attention. When analyzing the translator's process of conveying the author's thoughts, their ability to understand the text, retain and utilize knowledge, as well as express ideas in a language comprehensible to others is studied. For instance, a translator's professional skill is not limited to knowledge of languages but also includes the ability to identify and solve problems arising during the translation process.

TILSHUNOSLIK

The authors note that the processes associated with the practical activities of translators, like those of educators, are often based on hypotheses and assumptions.

Kalit so'zlar: *kognitiv-pragmativ usul, hajviy matn, pragmatika, tarjimashunoslik.*

Ключевые слова: *когнитивно-прагматический метод, сатирический текст, прагматика, переводоведение.*

Key words: *cognitive-pragmatic method, satirical text, pragmatics, translation studies.*

KIRISH

Kuzatishlardan shuni aytish mumkinki, tarjima dinamik, interaktiv va noan'anaviy xususiyatga ega bo'lib, boshqariladigan va boshqarilmaydigan jarayonlarning o'zaro ta'sirini talab etadi. Tarjima jarayonining ajralmas qismi bo'lgan qarorlarni qabul qilish turli xil bilimlarni qo'llash asosida amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, hajviy matnlarni tarjima qilishda kulgi tuyg'usini ifodalash haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, ilgari ma'lum bir xalq madaniyatiga xos bo'lgan hazillarni tarjima qilish imkonsiz deb hisoblangan va tarjimonning iste'dodi hamda ijodiy jarayoni haqida ko'p gapirilgan. Ammo muayyan hodisaning tabiatini chuqur tahlil qilib, uning tarkibiy qismlarini aniqlasa, uni tushunish va qayta yaratish imkoniyatlari ortadi, degan fikrlar ham mavjud. Hazilni tajribaviy qismlarga ajratish samarali bo'lib, unga yaqin muqobilni topish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shuningdek, tarjima jarayonining zamonaviy kognitiv tushunchasi so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan tizimli fikrlashning mavjudligiga asoslanadi. Ko'pgina olimlar tafakkur kodi haqida turli farazlarni ilgari surganlar, jumladan, Vigotskiy (ichki nutq, 2007), Jinkin (universal predmetli-sxematik kod, 2020) va Leontev (2003). Bu g'oyalar mahalliy tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilib, tabiiy ichki kod (Zimnyaya, 2020), intellekt tili (Zalevskaya, 2008), intellekt kodi (Tarasov, 2022), semantik til (Brudniy, 2021) va tafakkur tili (Vinograd, 2023) kabi tushunchalar taklif etildi. A.G.Minchenkov bu tuzilmalarni konseptlar bilan bog'laydi. U ilmiy matnlarni tarjima qilish jarayonida freymmlar tizimidan foydalanadi va "tarjima jarayoni hamda tarjimon bilimlarini freymmlar orqali tasvirlash tarjimonlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga va ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tezlashtirishga yordam berishi mumkin" degan xulosaga keladi. Uning fikricha, tarjima jarayoni asl matnidagi mavjud freymmlarni qayta ishlash va ularning tarjima tilidagi muqobillarini izlashdan iborat, chunki faqat matnni tahlil qilish bilan cheklanib qolmaslik kerak.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, tarjima jarayonini yaxshiroq tushunish va tasvirlash uchun ekstralingvistik omillarni hisobga olish zarur. Badiiy va boshqa turdagi matnlar tarjimasida asosiy e'tiborni o'quvchining kommunikativ maqsadiga qaratish muhim sanaladi. An'anaviy tarjima bo'lgan "aslyat matni-tarjima matni" modeli o'rniga "muallif-tarjimon-o'quvchi" o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb qaraladi [1,4]. Bularning barchasini pragmatik xususiyatga ega omillar sifatida ko'rish mumkin. Hajviy matnlar tarjimasida kulgi hissini ifodalash inson ongining eng subyektiv kategoriyalaridan biri sifatida, asosan, bir qator pragmatik omillarni hisobga olmasdan amalga oshirish mumkin emas.

Pragmalingvistika - til belgilari va nutq egasi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganuvchi yo'nalish bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tilni o'rganishning istiqbolli yo'nalishi sifatida qaraladi [3]. Bu sohaning aniq chegaralari yo'q bo'lib, u nutq egasi, qabul qiluvchi va ularning muloqot jarayonidagi o'zaro aloqasi, shuningdek, kommunikatsiya sharoiti bilan bog'liq turli masalalarni qamrab oladi.

Pragmatika keng ma'noda tildan foydalanish va uning barcha jihatlarini qamrab oluvchi fan sifatida qaraladi. U til o'zaro ta'sir shakllari, uning vazifalari, ma'no turlari, muloqot qoidalari, bilimlarni freymli tuzilmada shakllantirish, munosabat va ishonch, shuningdek, matn va nutqni tashkil etish qoidalari kabi masalalarni o'z ichiga oladi [7]. Pragmatika ma'noning kontekstga bog'liq shakllarini (jumladan, so'zlovchi shaxs ta'sirini) va kontekstdan tashqaridagi ma'nolarni ham tahlil qiladi. Shu bois, u tilni faqat nazariy jihatdan o'rganishdan tashqari, uning lingvistik, ijtimoiy va kognitiv kontekstlarda qanday qo'llanilishini tahlil qilishga yo'naltirilgan [5].

Tadqiqotchilarning fikricha, so'nggi yillarda tarjimashunoslik va pragmatika o'rtasidagi yaqin aloqalar tarjima jarayonini kommunikatsiya akti sifatida tushunish bilan bog'liq. Ularning ta'kidlashicha, bugungi kunda tarjima oddiy og'zaki muloqotning yana bir ko'rinishi sifatida qaraladi va shuning uchun har qanday nutqni tushunishga ta'sir qiluvchi umumiy qoidalarga bo'ysunadi [6]. Kulgi hissini tarjimada ifodalash nuqtayi nazaridan qaraganda, badiiy asarlarda hazillardan foydalanishning asosiy maqsadi - tarjima jarayonida muallifning umumiy g'oyasining muhim qismi hisoblanadi. Bu odatda matnni talqin qilish bosqichi bo'lib, uni aniq va ehtiyotkorlik bilan uzatish kerak [1].

Pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri - nutqni qabul qiluvchi (o'quvchi) bilan bog'liq bo'lib, gap nafaqat grammatik yoki leksik ma'nolarga, balki uning qanday tushunilishi, qanday kontekstda aytilgani va uni eshituvchi yoki o'quvchi qanday qabul qilishiga ham bog'liq. Ikkinchidan, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olish zarur. Ya'ni, nutq yoki matnni to'g'ri talqin qilish uchun nafaqat uning grammatik va ma'noviy jihatlarini, balki uni aytgan shaxslar, ularning o'zaro munosabatlari va muloqot vaziyatini ham inobatga olish kerak [3]. Bundan tashqari, umumiy vaziyatlar haqidagi bilimni shakllantiruvchi skriptlarni yaratishda pragmatik ma'lumotlar muhim o'rin tutadi va bu holat hech qanday shubha tug'dirmaydi. Bu esa kognitiv fanlar va pragmatikani yanada yaqinlashtirib, ushbu ishda taklif etilgan gipotezaning asosiy nuqtalaridan biri hisoblanadi. Hazil kinoya va sarkazm shaklida uchraganda, ayniqsa, ochiq belgilersiz ifodalanganda, pragmatik omillarning ahamiyati yanada ortadi [6].

Bundan tashqari hazil tarjimashunoslikda ham alohida ahamiyatga ega. Hajviya, hajviy matnlarni tarjima qilishga bag'ishlangan ishlar uncha ko'p bo'lmasada, hajviy matnlarni tarjima qilish va uning tarjimasidagi muammolariga bag'ishlangan bir qator ishlarda kulgi hissini berish masalasi bir qator yoritib o'tilgan. Baloniya universitetining professori Delia Chiaroning fikriga ko'ra hajviy matnlarni tarjima qilish tarjimon uchun yechimi murakkab bo'lgan muammolarni keltirib chiqaradi ("...creates one of the arduous challenges"). Biroq aynan mana shu vazifaning murakkabligi tadqiqotchilarning ushbu tarjima aspektiga bo'lgan qiziqishini oshiradi ("...this particular aspect of translation has attracted significant attention"). Uning aytishicha, hajviy matnlar tarjimasidagi eng katta muammo lingvistik va sof madaniy xususiyatlarning kombinatsiyasidir. Muallif lingvistik muammolarni hal qilish uchun tarjima tilida o'xshash vositani, masalan, ma'nosi yaqin bo'lgan polisemalarni topishni taklif qiladi. Lekin aslida "boshqa tilda o'xshash ma'nolarni yetkazish uchun o'xshash lingvistik vositalardan foydalanish ehtimoli kam" deya aytib ham o'tgan. Chiaroning fikriga ko'ra, hazil tarjimasini muayyan shartlarga asoslanib tarjima qilib bo'lmaydigan "...conventionally untranslatable" qoidalarga asoslanadi, uning tarjimasini bilan bog'liq asosiy muammo sifatida evivalentlik va tarjima qilib bo'ladigan aniq qoidalar mavjud emasligini ta'kidlaydi. U Nidaning "funktional ekvivalentlik" nazariyasiga asoslanib, hazilni tarjima qilishda matnga jiddiy o'zgarishlar kiritishni o'rinli deb biladi [4]. Uning fikricha "hazilni tarjima qilish mumkin, ammo uni aslida hazil sifatida saqlab qolish uchun sezilarli darajada o'zgartirilishi kerak" deb aytib o'tadi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, hazil tarjimasini odatdagi tarjima usullariga bo'ysinmaydigan tarjima turi bo'lib, asliyatdagi ma'noni berish uchun tarjimondan katta mehnat va ijodkorlik qobiliyatini talab etadi [2].

Agar kerakli ta'sirni aniq bir joyda yetkazib bo'lmasa, Chiaro kompensatsiya usulidan foydalanishni tavsiya qiladi. U, shuningdek, asliyat matn va tarjima matn o'rtasida bir-biri bilan o'xshash nuqtalar mavjud bo'lishi muhimligini takidlaydi. Bunday o'xshashlik qancha ko'p bo'lsa, tarjima matni asliyat matniga shunchalik mos bo'ladi va o'quvchi qabul qiladigan ta'sir shunchalik yaqinlashadi.

Uning fikriga ko'ra hajviy matnlarni tarjima qilishda quyidagi usullarni ajratib ko'rsatadi:

- Matnning formal usulini saqlab qolish: bu usul matnning shakli va tuzilishini iloji boricha asliyatdagidek tarjima qilishni nazarda tutadi. Biroq, bu usulda ko'pincha tarjima ta'siri yo'qoladi, chunki hazil ko'pincha til yoki madaniy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi;
- Original matndagi birlikni tarjima tilida kulgi ta'sirini saqlab qoluvchi, lekin mos bo'lmagan birlikka almashtirish: bu strategiyada tarjimon kulgi hissini ham qayta yaratishga harakat qiladi, hatto original matndagi birlikka tog'ridan-tog'ri mos keladigan so'z yoki ibora mavjud bo'lmasa ham;

TILSHUNOSLIK

- Original birlikni tarjima tilidagi idiomatik ifoda bilan almashtirish: Tarjimon hajviy matnlardagi kulgi hissini saqlab qolish uchun o'z madaniyatiga mos keladigan iboralar va ifodalardan foydalanadi;

- Original matndagi hazilni e'tiborsiz qoldirish: bu usulda hazilni tarjima qilishdan butunlay voz kechiladi, chunki uni boshqa madaniyatga moslashtirish qiyin yoki mumkin emas deb hisoblanadi [5].

Mazkur maqsadga erishish yetarlicha murakkab bo'lib, ko'plab qo'shimcha savollarni ko'ndalang qo'yadi. Chunki badiiy asarlardagi hazil va kulgi hissiga ega bo'lgan matnlarni tarjima qilishga yondashuv bo'yicha hali aniq va mukammal yechim taklif etilmagan. Biroq, zamonaviy fanlararo yondashuvning ahamiyati o'sib borayotganini, shuningdek, tarjimashunoslik va kognitiv lingvistikaning o'zaro integratsiyasini hisobga olgan holda, ushbu jarayonni tushunishda yangi imkoniyatlar yuzaga kelayotganini aytish mumkin. Xususan, kognitiv lingvistika til tuzilmalari va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga e'tibor qaratib, tarjima faoliyatini chuqurroq anglash uchun yangi yo'nalishlarni ochadi.

XULOSA

Hajviy matndagi kulgining asosiy xususiyatlarini uning ta'sirini o'zgartirmasdan moslashtirishi lozim. Kulgini boshqa tilga muvaffaqiyatli o'tkazishda bilish va amaliy jihatlar, shuningdek, madaniyatlararo farqlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimonlar o'z ijodkorligi va ijodiy qobiliyatlaridan foydalanib, ba'zan madaniy muhitga mos yangi iboralarni qo'llash orqali kulgi hissini saqlab qolishga erishishlari mumkin. Boshqacha aytganda, kulgi yoki madaniyatlararo muloqotni tarjima qilishda madaniy farqlar va kulgi kontekstini to'g'ri anglay olish qobiliyati tarjima ishini yanada samarali qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yunusova G. D. (2023). On the potential for enhancement of tashkent's tourism opportunities. International Journal of Advance Scientific Research, 3(03), 35-39.
2. Pedersen, J. Subtitling norms for television: An exploration focussing on Extralinguistic cultural referces. John Benjamins Publishing. 2018.
3. Attardo, Salvatore. Linguistic Theories of Humor. Berlin and New York. Atherton, 2021.
4. Wickberg D. The Senses of Humor Self and Laughter in Modern America. Cornell University Press, 2018. 280 p.
5. Raskin V. Semantic mechanisms of humour. Holland: D. Reidel Publishing Company, 2020. 284 p.
6. Khalida Hamid T. Translating Cultural Humour: Theory and Practice. University of Baghdad.
7. Abaeva E. S. [Problems of translating extracts with humorous effect from Russian into English]. In: Russkii yazyk i kultura v zerkale perevoda. Vyp. 1 [Russian language and culture reflected in translation], Moscow, Higher School of Translation, Lomonosov Moscow State University Publ., 2020, pp. 7-16. Z
8. Vandaele J. Introduction. Constructing Humour: Meanings and Means // The Translator. 2022.Vol. 8. Iss. 2. P. 149-172. DOI: 10.1080/13556509.2002.10799130.